

**FARZANDGA ISM TANLASH MOTIVLARINING KONTRASTIV
TAHLILI (O‘ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA)**

Abdullyev Ziyodbek Mansurovich, FarDU dotsenti v.b., f.f.d.

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillarida farzandga ism tanlash motivlari lingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda antroponimlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi tarixiy, madaniy, diniy hamda ijtimoiy omillar qiyosiy aspektda o‘rganiladi. Shuningdek, har ikki til tizimida ism tanlashda kuzatiladigan semantik motivlar, an’ana va qadriyatlarning o‘rni hamda ularning milliy madaniyat bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis antroponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ularning qiyosiy-lingvistik tahlilini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Antroponimiya, ism tanlash motivlari, lingvokulturologiya, kontrastiv tilshunoslik, o‘zbek va nemis ismlari.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются мотивы выбора имени ребёнка в узбекском и немецком языках с лингвистической и лингвокультурологической точек зрения. В исследовании анализируются исторические, культурные, религиозные и социальные факторы, влияющие на формирование антропонимов, в сопоставительном аспекте. Особое внимание уделяется семантическим мотивам именования, роли традиций и ценностей в процессе выбора имени, а также их связи с национальной культурой. Результаты исследования позволяют выявить специфические особенности узбекской и немецкой антропонимии и углубить их сравнительно-лингвистический анализ.

Ключевые слова: Антропонимия, мотивы выбора имени, лингвокультурология, сопоставительное языкознание, узбекские и немецкие имена.

Abstract

This article examines the motivations for choosing a child's name in Uzbek and German from linguistic and linguocultural perspectives. The study analyzes historical, cultural, religious, and social factors influencing the formation of anthroponyms in a comparative framework. Particular attention is paid to the semantic motivations of naming, the role of traditions and values in the process of name selection, and their relationship with national culture. The results of the research contribute to identifying the specific features of Uzbek and German anthroponymy and to deepening their comparative linguistic analysis.

Key words: Anthroponymy, naming motivations, linguocultural studies, comparative linguistics, Uzbek and German personal names.

Kirish

Antroponim har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini aks ettiruvchi muhim antroponimik birliklar hisoblanadi. Farzandga ism tanlash jarayoni ko'plab lingvistik, madaniy, diniy hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir til va jamiyatda o'ziga xos motivlarga ega. O'zbek va nemis xalqlarida ham ism tanlash jarayonida milliy an'ana, tarixiy meros, diniy qarashlar hamda estetik mezonlar muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan mazkur maqolada o'zbek va nemis tillarida farzandga ism tanlash motivlari qiyosiy-lingvistik hamda lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Nomshunoslikka oid tadqiqot ishlarida jarangdorlik, qayta nomlash, diniy tasavvurlar kabi jihatlar va ular asosida nom tanlash ham o'zbek, ham nemis tilshunosligida keng tadqiq etilgan. Lekin har ikkala til nomlash motivlarining qiyosiy tahlili tadqiqi amalga oshirilmagan. Har ikki til nomlash motivlarini chog'ishtirma tahlilga tortishdan avval motiv tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Nemis olimi Friedhelm Debus motivlarni tadqiq etishni 'nomlash sababi bo'yicha qo'yilgan savol' deb ta'riflaydi [2, 64]. Konrad Kunze va Wilfried Seibickelar ism tanlash motivlarini tadqiq etgan holda ism tanlashning ikki turini farqlaydilar: jamiyatda mavjud an'analardan chiqmagan holda bog'liqlik asosida ism tanlash va erkin/mustaqil ism tanlash [3;4].

Bog‘liqlik asosida ism tanlashda nom jamiyatda mavjud turli tashqi faktorlar - urf-odat, diniy talab kabilar ta‘siri ostida beriladi. Erkin tarzda ism tanlashda esa nom tanlash qat‘iy asosda belgilangan qoida va talablarga bog‘liq bo‘lmagan holda mustaqil ism tanlash nazarda tutiladi [3, 54].

O‘zining tarixiy shakllanish bosqichlari davomida nemis tili bolani nomlash tizimi bog‘liqlik asosida nom berish tizimidan erkin tarzda nom berish tizimi sari shakllanib bordi. O‘zbek tilida esa bog‘liqlik asosida bolaga nom berish ustunlik qiladi. Germaniya Kiel shahrida berilgan ismlar motivini ilmiy tahlil etgan olim Konrad Kunze 1936-yildan 1970-yilgacha bo‘lgan davrda qayta nomlash, urf-odatlar bo‘yicha nom berish kabi motivlar kamaygani va shu bilan birga hamohanglik, qisqalik, oddiylik kabi motivlar taxminan o‘n foizga oshganini qayd etadi. Uch mingdan ortiq ota-onalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomada, chiroyli talaffuz, familiya bilan hamohanglik va qisqalik motivlari eng asosiy bolaga nom tanlash motivlari sifatida aniqlanadi [3, 54].

20-asr boshlarida nemis olimi Arnold o‘nta asosiy bolani nomlash motivlarini aniqlab tahlil etadi. Bular quyidagilar: oiladagi an‘ana, ota-ona orzu va umidlari, din, sulolalar, siyosat, adabiyot, ismning chiroyliligi/xushohangligi, chetdan kirgan ismlar, noodatiylikka intilish, qadimdan qo‘yilgan ismlar kabi [1]. Yuqorida sanab o‘tilgan motivlardan ismning chiroyli ohangga egaligi va qisqaligi bugungi kunda ham nemis ota-onalari orasida eng asosiy nom tanlash motivlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga din, ota-ona istak va umidlari, oiladagi an‘ana kabi motivlar asosida bugungi kunda juda kam ota-onalar bolalariga ism tanlashmoqda.

O‘zbek tilshunosligida nomlash motivlari bir necha ilmiy tadqiqot ishlarida tahlilga tortilgan (Begmatov 1965/2013, Begmatov 1998, Kenjayeva 2019, Jo‘rayeva 2012). Kenjayeva (2019) bolaga nom berishning sotsiolingvistik jihatlarini nafaqat o‘zbek, balki chet el, xususan, rus olimlari ilmiy tadqiqot ishlari asosida tadqiq etgan. U har bir ism aniq bir motiv asosida qo‘yiladi va motivsiz ism tanlanmaydi, degan xulosaga keladi. Unga qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, ismlar motivi o‘sha xalqning tarixi, milliy-etnografik urf-odatlarini, an‘analarini va diniy qarashlarni o‘zida ifoda etadi [6;7].

Quyidagi jadvalda o‘zbek tilida bolaga nom berishning asosiy motivlari keltiriladi:

№	Nomlash motivlari	Misollar
----------	--------------------------	-----------------

1	Totemistik, animistik va mifologik tasavvurlar asosida nom berish	<i>To‘maris</i> –eron shohi Kir II ga qarshi kurashgan turkiy xalqlar malikasi va qo‘mondoni <i>Bo‘riboy, Arslon</i>
2	Nom beruvchining itsak, orzu-xavaslar asosida nom berish	<i>Go‘zal, Zebo, Botir, Fozil</i>
3	Diniy qarashlar asosida nom tanlash	<i>Fahriddin, Mavluda, Umar, Usmon</i>
4	Avval yashab o‘tgan insonlar nomi asosida bolaga nom berish/qayta nomlash	Bobo yoki buvi ismining nabiraga nom sifatida berilishi

Jadval 1: O‘zbek tili antroponimlari motivlari

Yuqoridagi jadvalda o‘zbek tilida bolaga ism berishning motivlari umumiy tarzda berilgan. Bugungi kunda totemistik, animistik va mifologik qarashlarga asoslangan ismlar deyarli ota-onalar tomonidan bolaga ism sifatida berilmaydi.

Tadqiqot maqsadi ilmiy tahlilni chog‘ishtirma aspektda olib borish bo‘lganligi sababli nom berish motivlarini ham o‘zbek va nemis tillari misolida qiyosiy tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Umumiy tahlillar asosida aytish mumkinki, turkiy xalqlar antroponimlari va ularning nomlash motivlari Yevropa tillari, xususan, nemis tili bolaga nom berish motivlari bilan qiyosiy aspektda juda kam tadqiq etilgan. Turk olimi Dursun Zengin nemis va turk ismlari etimologiyasini qiyosiy tahlilga tortgan. U tadqiqot natijasida 16 ta nemis tili va 22 ta turk tili bolaga nom berish motivlarini aniqlagan. Shuningdek, u turk ismlari nemis tili ismlariga qaraganda rang-barangligi va son jihatdan ko‘p ekanligini ta‘kidlaydi [5, 253-267]. Mazkur holatning asosiy sababi esa turk antroponimik tizimining nemis antroponimik tizimiga qaraganda ochiqligi va nom berishda kamroq cheklovlar mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va nemis tillarida farzandga ism tanlash jarayoni turli tarixiy, madaniy, diniy hamda ijtimoiy omillar bilan belgilanadi va bu jarayon har ikki xalqning milliy qadriyatlar hamda dunyoqarashini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek antroponimiyasida an‘anaviylik, diniy qadriyatlar va ezgu

tilaklarni ifodalovchi semantik motivlar ustunlik qilsa, nemis antroponimiyasida tarixiy an'ana, oilaviy davomiylik hamda estetik va fonetik qulaylik kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar o'zbek va nemis antroponimiyasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish bilan birga, ularning qiyosiy-lingvistik hamda lingvomadaniy tadqiqotlari uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold R. Die deutschen Vornamen. – Wien: Legare street press, 2022. – 84 S.
2. Debus F. Namenkunde und Namengeschichte //Eine Einführung. – 2012. S.64.
3. Kunze K. dtv-Atlas Namenkunde: Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. – München: Deutscher Taschenbuch Verlag, 2007;
4. Seibicke W. Die Personennamen im Deutschen. – de Gruyter, 1996.
5. Zengin, Dursun. "Motivationen bei der Vornamenauswahl im Deutschen und Türkischen." Muttersprache, vol. 115, 2005, pp. 253–267.
6. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
7. Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион – мотивацион асослари ва тавсифи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – 54 б.